



TOSHKENT SHAHAR ADLIYA BOSHQARMASI BOSHLIG'INING BUYRUG'I

08.08.2025

303-um-son

Komissiya tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi 611-son qarori bilan tasdiqlangan Nazorat qiluvchi organlar mansabдор shaxslarini tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga (keyingi o‘rinlarda – Nizom) muvofiq

B U Y U R A M A N :

1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2025-yil 30-iyuldagagi 267-um-son buyrug‘i ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida intellektual mulk sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini tekshirish huquqini berish uchun xodimlarni attestatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha Toshkent shahar adliya boshqarmasining attestatsiya komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – Attestatsiya komissiyasi) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki:

Inson resurslari sho‘basi – Attestatsiya komissiyasining ishchi organi hisoblanadi.

4. Attestatsiya komissiyasi hamda uning ishchi organi o‘z faoliyatini tashkil qilishda Nizom talablariga qat’iy rioya qilinishini ta’minlasin.

5. Rejalashtirish va nazorat tahlil sho‘basi (A.Raxmatov) mazkur buyruqni boshqarmaning barcha manfaatdor tarkibiy bo‘limlariga ijro uchun yetkazsin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2025-yil 30-iyuldagagi 267-um-son buyrug‘i.

**Boshqarma boshlig‘i birinchi
o‘rinbosari**



X.Nazarov

Toshkent shahar

Kiritildi:

Bosh maslahatchi

N.RAXIMOVA

**Kelishildi:**

Sho‘ba boshlig‘i

A.Raxmatov

